

**Sana:20-mart.**

**Sinf:8-“G”**

**Fan:**Davlat va huquq asoslari.

**Mavzu:**Yuridik javobgarlik.

**Dars maqsadi:**

O'quvchilarga huquqiy javobgarlik va uning turlari haqida ma'lumot berish.

O'quvchilarni huquqiy bilimli, madaniyatli va mustaqil fikrli insonlar sifatida tarbiyalash.

O'quvchilarning mustaqil fikrlash qobiliyatini o'stirish.

**Dar turi:**Yangi tushuncha va bilimlarni shakllantiruvchiruvchi.

**Dars usuli:**Savol-javob, suhbat, “Bingo”, klaster.

**Dars jihozi:**

1.Mavzuga oid slayd.

2.Buklet va referatlar.

3.Yuridik adabiyotlar va Prezident asarlari ko'rgazmasi

4.Foydalanilgan adabiyotlar:

O'zbekiston yuridik ensiklopediyasi, O'zbekiston Respublikasi JK va JPK, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga sharh,O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.

**Tarqatma materiallar:**

Savol va topshiriqlar yozilgan kartochkalar.

**Yangi mavzuning tayanch tushunchalari:**

1.Huquqiy javobgarlik.

2. Huquqiy javobgarlik turlari.

3.Jarima.

4.Jazo.

5.Intizomiy javobgarlik.

6.Fuqaroviy javobgarlik.

7.Ma'muriy javobgarlik.

8.Jinoiy javobgarlik.

**Darsning borishi:**

**I.Tashkiliy qism**

O'quvchilar diqqati darsga jalb qilinib sinf III jamoaga bo'linadi.

**I jamoa.”Adolat”,shiori:**

“Adolat har ishda hamrohimiz va dasturimiz bo'lsin”.

**II jamoa “Femida”,shiori**

“Mustaqilligimizni mustahkamlab erkin va yorug' kelajak sari doimo olg'a yurish”.

**III Jamoa“Yosh huquqshunoslar”shiori.**

“Beshikdan qabrgacha ilm izla.”

**I.O'rganilgan mavzuni takrorlash.**

Bu vazifa tarqatma materiallar va Aqliy hujum asosida amalga oshiriladi.

**1-jamoaga topshiriq:**

Huquqbuzarlik va huquqbuzarlik turlari haqida gapiring.

**2-jamoaga topshiriq:**

Huquqbuzarlikning belgilarini ayting.

**3-jamoaga topshiriq:**

Huquqbuzarlik turlari o'rtasidagi farqlarni bayon qiling.

**Aqliy hujum savollari;**

1.Ijtimoiy xavflilik nima?

2.Huquqqa zidlik nima?

3.Jarima bu-

4.Jazo nima?

5.Intizomiy javobgarlikka ta'rif bering.

Fuqaroviy javobgarlik nima?

7.Ma'muriy javobgarlikka ta'rif bering.

8.Jinoiy javobgarlik nima?

O'quvchilar javobi tinglanib aniqliklar kiritiladi va baholanadi.

**Yangi mavzu rejasi;**

**1.Huquqiy javobgarlik tushunchasi.**

**2.Huquqiy javobgarlik turlari**

**3.Qo'shimcha jazo turlari. Huquqiy javobgarlik turlari**

Darsning bu qismida o'qituvchi mavzu mazmunini aks ettiruvchi slayd orqali o'quvchilarga bayon qiladi, so'ngra o'quvchilarning mavzuni o'zlashtirganliklarini aniqlash maqsadida har bir o'quvchiga quyidagicha oldindan tayyorlab qo'yilgan varaqalar tarqatadi.

<b>Huquqbuzarlik</b>	<b>Huquqbuzarlik sodir etgan shaxsning qilmishi uchun javob berishi</b>	<b>Intizomiy, fuqaroviy ma'muriy, jinoiy.</b>	<b>Jarima yoki jazo huquqni tiklovchi javobgarlik</b>
<b>O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksi, 181-modda</b>	<b>Fuqaroviy javobgarlik</b>	<b>1 sutkadan 15 sutkagacha, ba'zida 30 sutkagacha</b>	<b>2005-yil 1-avgust 2008-yil 1-yanvar</b>
<b>Hayfsan, jarima, mehnat shartnomasini bekor qilish</b>	<b>Jarima, muayyan huquqdan mahrum qilish, axloq tuzatish ishlari, xizmat bo'yicha cheklash, qamoq, intizomiy qismga jo'natish, ozodlikdan mahrum qilish</b>	<b>Harbiy yoki maxsus unvondan mahrum qilish, huquqni tiklash javobgarligi</b>	<b>Sud tartibida, ma'muriy tartibda, Intizomiy tartibda</b>

**Slaydlarda savollar namoyish etiladi:**

1. Huquqiy javobgarlik nima?

2.Huquqiy javobgarlikka nima asos bo'ladi?

3.Huquqiy javobgarlik qanday tartibda ko'riladi?

4. Intizomiy jazo turlarini ayting .

5.Huquqiy javobgarlik turlarini ayting.

6.Shaxsning to'liq moddiy va ma'naviy javobgarligi bu—

7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasida o'lim jazosini bekor qilish to'g'risidagi" farmoni qachon qabul qilinib, qachon kuchga kirdi?

8. Qo'shimcha jazo choralarini ayting.

9. Jinoiy jazo turlarini ayting.

10. Ma'muriy qamoq muddati qancha?

11.Intizomiy jazo turlari Mehnat kodeksining qaysi moddasida qayd etilgan?

12.Huquqiy javobgarlikning farqlanadigan 2 turi.

O'qituvchi slaydda ko'rsatilgan raqamga qarab savollarning javobini tartib raqamiga mos bo'lgan katakka qo'yib chiqish kerakligini aytadi.

Topshiriq bajarilgandan so'ng o'quvchilar o'zlarining javoblarini ekrandagi to'g'ri javob bilan solishtirib ko'radilar va qancha to'g'ri noto'g'ri belgilanganligi so'raladi.

**Savollar:**

**1. Huquqiy javobgarlik nima?**

2. Huquqiy javobgarlikka nima asos bo'ladi?
3. Huquqiy javobgarlik qanday tartibda ko'riladi?
4. Intizomiy jazo turlarini ayting .
5. Huquqiy javobgarlik turlarini ayting.
6. Shaxsning to'liq moddiy va ma'naviy javobgarligi bu—
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasida o'lim jazosini bekor qilish to'g'risidagi " farmoni qachon qabul qilinib, qachon kuchga kirdi?
8. Qo'shimcha jazo choralarini ayting.
9. Jinoiy jazo turlarini ayting.
10. Ma'muriy qamoq muddati qancha?
11. Intizomiy jazo turlari Mehnat kodeksining qaysi moddasida qayd etilgan?
12. Huquqiy javobgarlikning farqlanadigan 2 turi.

**Javoblar:**

2 Huquqbuzarlik	1 Huquqbuzarlik sodir etgan shaxsning qilmishi uchun javob berishi	5 Intizomiy, fuqaroviy ma'muriy, jinoiy.	12 Jarima yoki jazo huquqni tiklovchi javobgarlik
11 O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksi, 181-modda	6 Fuqaroviy javobgarlik	10 1 sutkadan 15 sutkagacha, ba'zida 30 sutkagacha	7 2005-yil 1-avgust 2008-yil 1-yanvar
4 Hayfsan, jarima, mehnat shartnomasini bekor qilish	9 Jarima, muayyan huquqdan mahrum qilish, axloq tuzatish ishlari, xizmat bo'yicha cheklash, qamoq, intizomiy qismga jo'natish, ozodlikdan mahrum qilish	8 Harbiy yoki maxsus unvondan mahrum qilish, huquqni tiklash javobgarligi	3 Sud tartibida, ma'muriy tartibda, Intizomiy tartibda

**Darsni yakunlash:** Mavzu xulosalanib, faol o'quvchilar rag'batlantiriladi va baholanadi

**Uyga vazifa:** Mavzu bo'yicha berilgan savolarga javob topish. Keyingi dars mavzusi bilan tanishib kelish.